

TUMAN HOKIMI MAKTABDA



TUMAN HOKIMI MAKTABDA

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev bugun 22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'ldi. Maktabga tuman hokimi tavsiyasi bilan tayinlangan maktab direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Farrux Boborustamov bilan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, tavsiyalar berildi.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan tanishgan tuman hokimi yuqori sinf o'quvchilari bilan uchrashdi. Bir soat dars o'tgan tuman hokimi tomonidan o'quvchilarning bilim darajasi ham sinovdan o'tkazildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-01 20:04:44